



2022- yilning yanvar oyi uchun Namangan viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar oyida Namangan viloyatida jami **350,2** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2021-yilning mos davriga nisbatan **103,6 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.




Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.01.2021- yil	01.01.2022- yil	
Namangan viloyati	2302	2401	104,3
Mingbuloq	85	79	92,9
Kosonsoy	267	258	96,6
Namangan	127	136	107,1
Norin	116	131	112,9
Pop	95	114	120,0
To'raqo'rg'on	93	99	106,5
Uychi	208	230	110,6
Uchqo'rg'on	141	176	124,8
Chortoq	160	169	105,6
Chust	176	168	95,5
Yangiqo'rg'on	95	102	107,4
Namangan shahri	739	739	100,0
Shundan	77	202	262,3
Davlatobod	85	162	190,6
Yangi Namangan		79	-

Joriy yilning yanvar oyida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **11,4** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yilning mos davriga nisbatan **30,0** mlrd.ga kamaygan.

2022- yilning yanvar oyida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Namangan shahriga (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 3,2 %) ga toʻgʻri keldi




Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 266,9 mlrd. so'mni tashkil etib 2021- yilning mos davriga nisbatan 0,7 % (foizga) punktga ko'payganini ko'rish mumkin.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **20,5 %** ni tashkil etdi yoki **71,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021- yilning mos davriga nisbatan **105,4 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **335,6** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib viloyatdagi ulushi **95,8 %** ni va nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **14,6** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib viloyatdagi ulushi **4,2 %** ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2022- yil yanvar oylarida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlar ni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **73,8 %** i yoki **258,3** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

73,8 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **11,4** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **4,4 %** ni tashkil etdi

4,4 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **175,9** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **72,9 %** ni tashkil etdi.

68,1 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **70,9** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **27,5 %** ni tashkil etdi.


27,5 %



**2022- yilning yanvar oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)
Namangan viloyati	350,2	103,6	258,3
Mingbuloq	14,6	120,9	10,6
Kosonsoy	24,1	81,2	17,6
Namangan	25,8	83,6	17,5
Norin	13,9	106,4	10,1
Pop	26	94,3	18
To'raqo'rg'on	24,9	102,6	17,4
Uychi	27,7	90,2	18,5
Uchqo'rg'on	17,9	78,7	12,3
Chortoq	29,8	130,2	19,9
Chust	15,1	80,2	11,2
Yangiqo'rg'on	18	111,2	12,7
Namangan shahri	112,4	126,2	61,1
Shundan			
Davlatobod	24,1	103,3	16,2
Yangi namangan	25,8	106,1	15,2

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **1,5 %** ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan **0,8 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush **6,7 %** ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan **2,3 %** punktga ko'paygan.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan **15,0 %** ni tashkil etdi.


ulushi, % da



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurilishi bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **17,8 %** ni tashkil etdi va 2021- yil yanvar oyiga nisbatan **259,9 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush **81,8 %** ni tashkil etib, 2021-yilning yanvar oyiga nisbatan **9,8 %** punktga ko'paygan.







Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibiga yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **3,6 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **96,5 %** ni tashkil etdi.

ulushi, % da



2021- yil
yanvar



2022- yil
yanvar

2022- yil
yanvar

Namangan viloyatida qurilish ishlari

11